

## BADIYY TARJIMANING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

**Hasanova Gulnoza Hikmat qizi**

*Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti  
203-guruh talabasi*

### ARTICLE INFO

#### ARTICLE HISTORY:

Received: 18.04.2025

Revised: 19.04.2025

Accepted: 23.04.2025

### ABSTRACT:

*Ushbu maqolada badiiy tarjimaning asosiy maqsadi, vazifalari, o'ziga xos xususiyatlari, badiiy tarjima jarayonida duch kelinadigan muammolar, tarjima uslublarining badiiy tarjimadagi o'rni va badiiy tarjimada morfologik-sintaktik muammolarni bartaraf etish usullari haqida so'z yuritiladi.*

#### KEYWORDS:

*lingvistik xususiyat,  
tarjima, tarjimon,  
asliyat matn, uslublar,  
tarjima texnikasi.*

Kirish. Badiiy tarjima bu - roman, esse, badiiy adabiyot, qisqa hikoyalar, komediya, xalq ertaklari, she'rlar, tanqidiy asarlar, ilmiy fantastika va boshqa yozma adabiy janrlarni yozma tarjima qilish bo'lib, adabiy ijodning bir turi hisoblanadi. Tarjimonlar she'riyat va nasriy asarlarni tarjima qilishda juda ko'p muammolarga duch kelishadi. Shu muammolardan biri asliyat va tarjima tillari matnining lingvistik va ekstralengvistik xususiyatidir, chunki asliyat tili va matni boshqa madaniyatga mansub bo'lsa, tarjimonning birinchi muammosi matndagi leksik birliklarni o'z tilida muqobil variantini topishdir. Ushbu tarjima jarayonida ayrim so'zlar madaniyatga aloqador tushunchani ifodalab kelishi yoki kelmasligi ham mumkin. Shu sababli bu turdag'i so'zlarni tarjima qilayotganda tarjimonlar behtiyot bo'lislari lozim. Bundan tashqari she'rlar yoki g'azallar tarjimasida tarjimonlar tajnis ya'ni so'z o'yinini tarjima qilishda bir qancha qiyinchiliklarga duch kelishadi va shunga o'xshash holatlarni hikoya va romanlarning sarlavhalarini tarjima qilish imkonsiz bo'lgan boshqa vaziyatlarda kuzatish mumkin.

Badiiy asarlarni tarjima qilishda o'sha qahramonning hissiyotlarini to'liq namoyon qila olish lozim. Fyodor Dostoyevskiyning realistik-psixonalistik asarlari, Gabriel Garsiel Markesning realistik ertaklarini tarjimonlarning zahmatli mehnatlari tufayli bizgacha yetib

kelgan. Aynan adabiy tarjimonlar bebaho tarjimalari orqali bo'shliq yuzaga kelishi barataraf etdilar va turli xalq mualliflarini butun dunyo bo'ylab bog'laydilar. Bu borada P.Nyumark badiiy matnni tarjima qiluvchiga nisbatan "matnning ma'nosini tarjima qilishda muallif kabi matnni anglashi kerak", deya ta'kidlaydi. Tarjimon asar muallifining uning yozishdan asosiy maqsadini, g'oyalarini, ichki kechinmalarini to'g'ri anglay olsagina, asliyat matndagi badiiy zavjni tarjima matniga ham olib o'ta oladi. Bundan tashqari, badiiy tarjima jarayonida tarjima uslub va usullariga e'tibor qaratish lozim. Tarjimashunoslikda tarjima uslubi (translation method), tarjima usuli (translation tools), tarjima texnikasi (translation techniques), tarjima jarayonlari (translation procedures), tarjima transformatsiyalari (translation transformation), tarjima strategiyasi (translation strategy) kabi usullar mavjuddir.

J.Levi tarjimada so'zma-so'z tarjima rasmiy uslubdagi matnlarda eng to'g'risi deb hisoblagan. Biroq badiiy uslubdagi matnlarda so'zma-so'z tarjima ba'zi qusurliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Umuman, zamонавиј тарјимашунос олимлар ичидаги со'зма-со'з тарјимани асосиј тарјима виситаси деб исоблагданлар озчиликни ташкил қилади.

Badiiy tarjima nazariyasi tarjimonga aniq tamoyillar asosida harakat qilish, o'z mahoratini takomillashtirishga yordam beradi. Tarjima tarixini kuzatadigan bo'lsak, badiiy tarjimada ikki yondashuv - tilshunoslik va adabiyotshunoslik yo'nalishi mavjudligini aytib o'tishga to'g'ri keladi. Tilshunoslari tarjima qonuniyatlarini leksik, grammatik va matniy muvofiqliklar ichidan izlaydilar. Adabiyotshunoslari esa asosiy e'tiborni tarjimaning aksiologik jihatlariga, ya'ni matnning g'oyaviy - estetik va badiiy fasoxatiga qaratadilar. Ular uchun muhimi badiiy matnda estetik ekvivalentlikka erishishdir. Darhaqiqat, badiiy asar tarjimasi ustida ishlayotgan tilshunos estetik tahlil va adabiyotshunoslik yondashuvidan holi bo'lmaydi.

Tarjima uslublari 1) so'zma-so'z (word for word translation), 2) gaplarni burma-bir tarjima qilish (literal translation), 3) asliyatga sodiq holda tarjima (faithful translation) 4) semantik tarjima (semantic translation), 5) kommunikativ tarjima (communicative translation), 6) nazmiy tarjima(plain prose translation), 7) akademik tarjima(academic translation), 8) fonemik tarjima(phonemic translation), 9)metrik tarjima (metrical translation), 10) qofiyalangan tarjima (rhymed translation, 11) moslashtirish (adaptation), 12) erkin tarjima (free translation), 13) idiomatik tarjima (idiomatic translation) shu kabi va yana boshqa tarjima uslublari badiiy tarjimada o'ziga xos ahamiyatga ega bo'lib, asosan tarjimonni qaysi jarayonda qaysi uslubdan foydalanish va yondashish jihatdan bir-biridan farqlanadi. Bu uslublar asosan asliyat matnining uslub jihatidan turiga ko'ra tanladi, yani

matn rasmiy uslubdagi matn bo'lsa, unda gapma-gap tarjima, asliyatga sodiq holda tarjima, akademik tarjima uslublari qo'llanishi mumkin.

Badiiy tarjimada bir qator morfologik-sintaktik muammolarni ham uchratishimiz mumkin. Tillar orasidagi turli xil fikrlar malum bir tildagi malumotni boshqa bir tilga tarjima qilishda ko'plab sintaktik muammolar keltirib chiqaradi. Bu muammolar asliyat va tarjima tillari o'rtasidagi bog'liqlik darajasiga ko'radir. Masalan, asliyat va tarjima tillari guruhining til oilalari bir guruuhga mansub bo'lsa sintaktik muammolar kam, agar bir xil oila guruhlariga mansub bo'lmasa, sintaktik muammolarni ko'proq duch kelishimiz mumkin. Chunki turli tillarda gap bo'laklari gap bo'laklarining joylashuv o'rni, tartibi har xil bo'lishi mumkin. Shu sababli tarjima qilish jarayonida faqatgina so'zlarni to'g'ri tarjima qilishni o'zi yetarli emas, ya'ni so'zlarni sintaktik, morfoligik va idiomatik jihatdan to'g'ri moslash ham zarur.

Badiiy tarjima o'z nomidan ko'rinish turibdiki, romanlar, hikoyalar, she'rlar, bir so'z bilan aytganda, barcha turdag'i nasriy va nazmiy adabiy asarlarni tarjima qilishga qaratilgan.

Xulosa. Badiiy tarjimaning bizga bir qancha sohalarda foydalari tegadi. Masalan, adabiy boyliini oshiradi. Dunyodagi eng yaxshi adabiy asarlar o'zbek tiliga tarjima qilinsa, o'zbek kitobxonlari dunyo adabiyotining durdonalaridan bahramand bo'lishadi. Bundan tashqari, til boyligini kengaytiradi. Badiiy tarjima jarayonida tarjimonlar o'z tilining imkoniyatlarini to'liq ishga solib, yangi ibora va ifodalarni yaratadi. Bu tilning rivojlanishiga hissa qo'shadi. Ijodkorlik va estetik didni oshiradi. Tarjimon asl asarining ohangini, ruhiyatini, badiiy go'zalligini to'g'ri yetkazishga harakat qiladi. Bu esa estetik tafakkurni oshiradi. Madaniyatlararo aloqani rivojlantiradi. Badiiy asarlarni tarjima qilish orqali boshqa xalqlarning madaniyatiz dunyoqarashi, urf-odatlari va qadriyatlarini tushunish imkoniyatini beradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sirojiddinov Sh, Odilova G. "Badiiy tarjima asoslari", Mumtoz so'z 2011.
- 2.G'ofurov I, Mo'minov O, Qambarov N."Tarjima nazariyasi", Tafakkur bo'stoni 2012
- 3.Newmark.P. "Approaches to translation"
- 4.Yo'ldoshev Ulug'bek "Tarjima nazariyasi", Samarqand 2011
- 5.To'xtasinov I , Yo'ldoshev U "Badiiy tarjimani o'qitilishning lingvistik va metodik asoslari"
6. Sharipov J "Badiiy tarjimalar va mohir tarjimonlar", 1972